

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi

Andijon davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası

5111700 – BTSTI ta'lim yo'nalishi
4 – bosqich 3 - guruh talabasi

Xasanova Odinaning

“Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F. Kiyikboyev

Andijon – 2016

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I bob. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davri va uning o'ziga xos xususiyatlari	
1.1. Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari.....	6
1.2. Savod o'rgatish jarayonining tuzilishi va dars turlari	12
1.3. Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi.....	18
1.4. Savod o'rgatish davrida bolalarni o'qishga o'rgatish.....	25
1.5. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish.....	29
 II bob. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirish usullari	
2.1. Boshlang'ich sinflarda o'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablar.....	40
2.2. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini boyitish manbalari.....	48
2.3. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish usullari.....	56
 Xulosa.....	67
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69

K i r i s h

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalaridan eng muhimi sifatida davlatimiz tomonidan yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalash borasida qilinayotgan ishlarni alohida ta'kidlash lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganiga yigirma yil bo'lgan bo'lsa, davlatimiz bu davr oralig'ida turli jabhalarda ulkan o'zgarishlar, tub islohotlar olib borib, o'ziga xos yuksak natijalarga erishdi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari asrlarga tatigulik chuqur mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi".¹ Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan jarayonlar, yangiliklar ana shu niyatlarimizning pirovad natijasidir. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida olib borayotgan odilona siyosati tufayli mavqei mustahkamlanib, nufuzi ortib bormoqda. Bu Respublikamizda yetishib chiqayotgan malakali kadrlar bilan ham bog'liqdir. Jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tub islohotlar ta'lim sohasini ham yangitdan isloh qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan milliy va jahoniy ma'rifat qadriyatlariga asos solindi. Mamlakatimizda ta'limning o'ziga xos modeli yaratildi, davlatimiz taraqqiyotida ta'lim ustuvor sohaga aylandi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "...ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajadagi intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski

¹ Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 -yil, 6 -dekabr soni.

tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi".² "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" da ta'kidlanganidek, bugungi kunda o'zida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili ta'limining ahamiyati katta. Chunki ona tili jamiki bilimlarning kaliti, poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartida uqtirilishicha, "Ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon hozirgi kun talabiga javob bermasa, boshqa fanlar ta'limiga ham putur yetishi mumkin. Hozirgi kun talabi esa o'quv jarayonini mukammal isloh qilish, ta'lim samaradorligini muttasil oshirib borishdir. Bunda, so'zsiz, ta'limning yangi, zamonaviy texnologiyasiga suyanish kutilgan natijani berishi muqarrardir".³

Ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi, yuqorida ta'kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta'kidlash joizdir. Boshlang'ich ta'lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o'qitish asosiy o'rin egallaydi.

"Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi barcha pedagogik -psixologik vositalarni qo'llagan holda kichik

² Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998 - yil, 2 -son, 4 -bet.

³ Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. Toshkent, "Sharq", 1999 -yil, 7 -maxsus son, 50 -bet.

maktab yoshidagi o'quvchilarda yaxlit tarzda o'quv faoliyatini shakllantira olishi kerak".⁴

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining **dolzarbligi** – boshlang'ich sinf savod o'rgatish davrida o'quvchilarining imloviy savodxonligini oshirishda, ularda grammatik tushunchalarni shakllantirish usullari tizimi haqidagi fikrlar va adabiyotlarning kamligi. Mana shu kamchiliklarni bartaraf etishni ushbu mavzuni yoritishda o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Maqsadi – savod o'rgatish davrida o'quvchilarining imloviy savodxonligini oshirish texnologiyasi ustida imkoniyatimiz darajasida ishlash va bu haqdagi fikr-mulohazalarimizni yoritishdir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati – savod o'rgatish davrida o'quvchilarining imloviy savodxonligini oshirish texnologiyasi tizimini yaratishdan iborat.

Ishning **nazariy va amaliy ahamiyati** shundaki, savod o'rgatish davrida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish usullaridan foydalangan holda mustahkamlash ularning mavzuni zukkolik bilan o'zlashtirish qobiliyatlarini o'stiradi, ularda mavzu mohiyati ustida tezroq idrok qila olish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishimiz **obyekti** – boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani

Bitiruv malakaviy ishimiz **predmeti** – boshlang'ich sinflar savod o'rgatish davrida ona tili darslari.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentning ma'naviy-ma'rifiy asarlari, O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish" to'g'risidagi qonunlari.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi - kirish, 2 ta bob, 7 ta paragraf, xulosa qismlaridan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

⁴ Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1998 -yil, 6 -son, 14 -bet.

I bob. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davri va uning o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari

Boshlang'ich ta'limda savod o'rgatish davri asosiy davrlardan hisoblanadi. Agar o'quvchi savod o'rgatish davrida yaxshi o'zlashtirsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga ega bo'ladi.

Xat-savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berishni o'rgatiladi. Nutqni gapga, gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga ajratishni, tovushlarni eshitish va talaffuz qilish bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarnig birin-ketinligiga e'tibor berishni bilib oladilar.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog'lab aniqlanadi.

Savod o'rgatish darslarida vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari utkaziladi. Darslar sistemasi deyilganda o'quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jixatdan rejali taqsimlangan darslarning mantiqiyliigi va istiqboli bir-biri bog'langan dars turlari va unda o'qituvchi bilan o'quvchilar foydalaniladigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo'lgan izchillik nazarda tutiladi.

Amaldagi "Alifbe" darsliklari va ularga yozilgan qollanmalarga asosan savod o'rgatishda tayyorgarlik davri uchun 5 dars, alifbedan so'nggi davrga ham 5 dars ajratiladi. Oraliq davr alifbe davri hisoblanadi. Ta'limning har bir bosqichidagi darsning uziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar siklini qurilishida ichki mantiqiylik bo'lib, har bir siklda yangi tovush va xarf urganiladigan dars bilan yangi mavzu urganilmaydigan darsni navbatlashtirish, orfografiya va so'zning bo'gin tuzilishi haqida ma'lumot berish, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar sikli takrorlash-umumlashtirish darsi bilan

yakunlanadi. Oz komplektli maktablarda o'qituvchi bir vaqtning o'zida ikki yoki uch sinf bilan ishlaydi. Bunday sinflarda o'qituvchi bir vaqtning o'zida bir necha sinf o'quvchilari bilan ish olib boradi. Bunday sinflarda dars jadvali integrallashtirilgan boTishi kerak va darslar 30 daqiqaga qisqartirilishi mumkin.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe" ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qishga, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora— bora malakaga aylantiriladi,

O'qish va yozish malakasi nutq oid malaka. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining-boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchuy bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

O'zbek tili yozuvi - tovush yozuvi.Yozuvda o'quvchi tovushni harfga, o'qishda esa tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o'qish va yozish parallel olib boriladi.

O'zbek tili yozuvi - fonematik yozuv. O'zbek tili yozuvi uchun 1993 yil lotin garfikasi asos qilib olindi.Nutqning har tovushi uchun unga mos shakl qabo'l qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitek - sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli- o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi , tahlil qilinadi , o'rganilagan harf bilan sintezlanadi.

Savod o'rgatishda tovush - harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi.


Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda asosiy davr savod o'rgatish davri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovush va harflarni qay darajada singdirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi taqozo etiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida

o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.


Quyida biz «Improvizatsiya» va «Klaster» metodlarining turli ko'rinishlaridan namunalar keltirmoqchimiz.

Improvizatsiya

Bu metod «Klaster» metodining aksi bo'lib, turli o'xshash fikrlarni bir fikrga jamlashdan iborat. Masalan, doskaga «anjir» so'zini yozib, qaysi harf bilan boshlanishi so'raladi. Yana «anor», «archa», «arra», «ana» so'zlari ham yoziladi va qaysi harf bilan boshlanishi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar barcha so'zlarni «A» harfi bilan boshlanishini aytadi. O'qituvchi yozilgan so'zlarning barchasini o'rtadagi «A» harfi bilan tutashtiradi yoki «A» atrofiga jamlaydi:




Yoki yana bir namuna:



Rasm


Bo'g'nlarni ham o'rtağa jamlab, so'z hosil qilish mumkin. Bu ham «Iprovizatsiya» metodi hisoblanadi.


Masalan:




Savod o'rgatish davrida «Klaster» metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Misollar keltiramiz:





Yoki boshqacha namunasi:



Xullas, savod o'rgatish davrida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning savodxon bo'lishlarida, DTS talablarida qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Maktabga kelgan bolada savod o'rgatishning tayyorgarlik davrida maktabga kelib-ketish odobi maktabning ichki tartib qoidalari kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish qoidalari o'rgatiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni bir-biriga taqqoslashi yoki eng intizomli, odobli, tartibli o'quvchini namuna, ibrat qilib ko'rsatishi eng yaxshi usullardan. Chunki har qanday yosh bola yaxshi so'zning, ayniqsa maqtoovning rag'batning yoki arzimagan bo'lsa ham biror narsaning gadosi bo'ladi. Savod o'rgatishning asosiy (Alifbo) davrida o'qituvchi «Alifbo» darsligidagi har bir so'zning ma'nolarini tushuntiradi, har bir rasmning nima ekanligi, uning ijobiy xususiyatlari va o'quvchilarning unga nisbatan munosabatlari qanday bo'lishini o'quvchilarga ijodkorlik ruhida singdiriladi. Demak, bunda o'quvchi savod chiqarish bilan birgalikda o'zining ma'noviy jihatidan ham saviyasini oshirib boradi.

«Alifbe» darsligidagi rasmlar o'quvchilarni Vatan haqidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatanga bo'lgan muhabbat va

sadoqatlarini oshirish, Vatanimizning go'zal tabiati, tabiiy boyliklari, shirindan shakar nozu-ne'matlarini qadrlash, komil inson bo'lish maqsadlarini amalga oshirish uchun rostgo'ylik, mehribonlik, do'stlik, ahillik, bilimdonlik kabi fazilatlarga ega bo'lish kabi maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Quyida ba'zi rasmlarning pedagogik qimmati haqida fikr yuritamiz.

Darslikning dastlabki sahifasida Mustaqillik bayrami tasvirlangan lavha, ikkinchi sahifasidagi Bilimlar kuni bayrami haqidagi rasm, Vatanimiz gerbining rasmi, Xumo qushining rasmi, «Vatanim» she'riga ishlangan rasm, «Gerbdagi qushning aytganlari» matniga ishlangan rasmlar o'quvchilarga Vatanimizning bugungi kundagi jamoli, ravnaqi haqida Vatanimizning ramziy belgilari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Vatanni sevish va ardoqlash haqidagi bilimlarini singdirishda beqiyos xizmat qiladi. Vatanimizning jannatmakon o'lka ekanligini, uning boy va go'zal tabiati, unda pishadigan darmondorilarga boy bo'lgan har xil mevalar haqidagi tushunchalarni beradi, Vatanimizga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshiradi.

Ayniqsa ertaklarga ishlangan rasmlar bolalarni vatanparvarlikka, to'g'riso'zlikka rostgo'ylikka va mehribonlikka undaydi.

Xullas, «Alifbe» darsligidagi rasmlar orqali o'quvchilarni vatanparvar, yurtni sevadigan, Vatan ravnaqi uchun qayg'uradigan, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan komil insonlar etib tarbiyalashda muhim pedagogik qimmatga ega.

Bu fazilatlarni o'quvchilarga rasmlar orqali singdira olish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

1.2. Savod o'rgatish jarayonining tuzilishi va dars turlari

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imlo malakalarini shakllantirish savod o'rgatish davridan boshlanadi.

Savod o'rgatish darslari, dasturda ko'rsatilganidek, haftada 8 soat bo'lib, 4 soat o'qish va 4 soat yozuvga ajratiladi.

Savod o'rgatish davri 2-sentabrdan dekabrning oxirigacha davom etadi. U ikki davrga bo'linadi:

- a) tayyorgarlik davri;
- b) asosiy davr.

Tayyorgarlik davri, o'z navbatida, 2 bosqichga bo'linadi:

- a) harf o'rganilayotgan bosqich;
- b) unli tovushlar va harflar o'rganiladigan bosqich.

1-bosqich uchun 10 soat dars ajratiladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi — o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtirish. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tuzilishi; bo'gin, so'zlarning bo'g'inlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishini; tovush, bo'ginning tovushlardan tuzilishi; tovushlarning unli tovush va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu davrda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga “Alifbe”da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan aytirish lozim.

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, “Alifbe” sahifalaridagi so'zlar, ularning ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi. Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarni daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf

elementlarini yozishga o'rgatish, namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash, o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ikkinchi bosqichga 14 soat dars ajratiladi. Mazkur bosqichda unli tovush va unli harflar o'rgatiladi. Bunda unlilarning uch xususiyatini:

a) og'izda to'siqqa uchramasligi;

b) cho'ziq aytilishi;

d) tarkibida faqat ovoz qatnashishi kabilarni o'quvchilarning amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim.

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Bu bosqichdayoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqida ma'lumot kitob ochtirilmay turib beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, o'qiymiz, ko'ramiz) ham izchil ravishda o'quvchilarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda ochila boradi.

Asosiy davr uchun 98 soat dars ajratiladi. Bu davrning asosiy vazifasi bolalarni o'qishga, o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni berilgan namunaga qarab yozish va tekshirishga o'rgatishdir.

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovushni harf bilan ifodalash, kesma harfdan bo'g'in tuzish va o'qish, kesma bo'g'in, ulardan so'z tuzish ishlari muntazam ravishda o'tkazilib turilishi lozim.

Savod o'rgatish darslari shunday uyushtirilishi kerakki, u har bir bolaning bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olishi, ijodiy va mustaqil fikrlashga undashi lozim. Savod o'rgatish darslari bolaning og'zaki va yozma nutqining to'g'ri rivojlanishiga, bola shaxsining umumiy kamolotiga ta'sir qilsin va ta'minlansin.

Ta'limning davri bosqichlariga ko'ra 2 ga bo'linadi:

- Tayyorgarlik davri darslari.
- Asosiy (alifbo) davr darslari.

Tayyorgarlik davridagi darslar, o'rganiladigan materialiga ko'ra, 2 bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich darslarida o'quvchilar muayyan tovush va harfni o'rganishga tayyorlanadilar. Ma'lumki, bolalar tilni bir butun birlik sifatida tasavvur qiladilar. Ana shu tasavvurlari asosida nutqning bo'laklardan tuzilishi o'rgatiladi. Bola nutqning bo'laklardan tuzilishini bilib borishi natijasida uning eng kichik bo'lagi tovush ekanini anglay boshlaydi va savod chiqarishga tayyor bo'ladi. Shundan so'ng bolaga muayyan tovush va uni ifodalovchi shakl — harf tanishtiriladi. Tayyorgarlik davrining yuqoridagi vaifalaridan kelib chiqib, 1-bosqich darslari “Nutqning fonetik bo'laklarini o'rganish darslari” deb nomlanadi. Bo'g'in va so'zdan unli tovushni ajratib olishning qulayligini hisobga olib, 2-bosqich darslari “Unli tovush va harflar o'rganiladigan darslar” deb ataladi.

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar, predmetiga ko'ra, ikki turga ajratiladi:

1. “Alifbe” darsligi asosidagi o'qish darslari.
2. “Yozuv daftari” asosidagi yozuv darslari.

Asosiy davr — o'qish darslari, yangi bilim berish — bermasligiga ko'ra, quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o'qish darsi.
2. O'rganilgan tovush va harflarni mustahkamlovchi o'qish darsi.
3. Bilimlarni takrorlash, umulashtirish darslari.

Asosiy davr — yozuv darslari esa quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Kichik harf va bosh harf yoziladigan yozuv darsi.
2. Kichik harflar yoziladigan yozuv darslari.
3. Bosh harflar yoziladigan yozuv darslari.
4. O'rganilgan bo'g'in, so'z, gaplarni yozishni mashq qilish darslari.

Xat-savod o'rgatish jarayonida hafta oxiridagi o'qish darslarining 15 — 20 daqiqasi sinfdan tashqari o'qishga ajratiladi.

Savod o'rgatish darslarida qo'llaniladigan metodlar

Savod o'rgatish darslari takomillashgan analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi.

Analitik-sintetik tovush metodi.

Analitik-sintetik tovush metodi nutq haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan, so'zlarning bo'g'inlardan, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini o'rgatishda, so'zdan o'rganiladigan tovushni ajratib olish, uni o'rganilgan harflarga qo'shib o'qishga o'rgatishda amal qiladi. Bu kabi tahlil ishlari, asosan, savol-javob usulida olib boriladi. Shuning uchun ham bu davrda qo'llaniladigan asosiy usul ta'limdagi suhbat, savol-javob usuli hisoblanadi. Suhbat metodi o'quvchilarni faollashtiradi, nutqiy vaziyatga soladi. Savol-javob usulida darsni maqsadga muvofiq uyushtirish uchun o'qituvchi har bir material yuzasidan beradigan savollarini oldindan tuzishi lozim, beriladigan savollar kelgusi bilimlar uchun zamin hozirlashiga ham e'tibor qaratilmog'i lozim. Doim "Saida nima qildi?", "Onasi nima qildi?" tarzida diqqat faqat harakatga qaratilishi yoki belgiga, predmetga, miqdorga qaratilishi o'quvchini bir tipda gap tuzishga o'rgatib qo'yadi. Bir sahifadagi rasm yuzasidan quyidagi tarzda tuzilgan savollar o'quvchilarning kelgusi otni, sifatni, fe'lni, sonni o'zlashtirishiga zamin yaratadi va turli tipda gaplar tuzishga o'rgatadi:

- Rasmda kim tasvirlangan?
- Ona nima qildi?
- Kim o'tin tayyorlab beryapti?
- Ona qanday nonlar yopdi?

Rasm yuzasidan tuzilgan savollar 4-5 tadan oshmasligi, 3-4 so'zli bo'lishi lozim.

Har bir rasm yuzasidan shu tarzdagi suhbatdan so'ng, ya'ni izchil fikr yuritishga yo'llanma berilgandan so'ng yaxshi biladigan o'quvchilarga og'zaki ijodiy hikoya tuzdirish, rasm mazmunini ijodiy so'zlatish mumkin. Bunda o'quvchi leksikasida bo'lmagan ayrim so'zlarni tayanch so'z sifatida aytib turish mumkin, bu esa o'quvchi so'z boyligining tadrijiy rivojlanishini ta'minlaydi⁵.

⁵ Abdullayev I. Uzluksiz ta'lim bo'g'inlari uchun ona tilidan muqobil dasturlar. Toshkent. "O'qituvchi", 1994.

Suhbat usuli darsning hamma bosqichida o'tilganlarni so'rash, yangi bilim berish, yangi mavzuni mustahkamlash, tekshirish, yakunlash jarayonida qo'llaniladi.

Ko'rgazmalilik metodi.

Bu usulni chex pedagogi Y.A.Komenskiy ta'limning asosiy qoidasi deb biladi: "Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi". Ayniqsa, ta'lim jarayonida mavhum tafakkuri yaxshi rivojlanmagan boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishi kerak: ko'rish, eshitish, hatto ta'm bilish sezgisi ham, chunki ular aniq narsa, predmet-hodisaga qarab fikrlaydi. Ta'limda o'quvchilarning bu xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu "Alifbe" darsligida ham hisobga olingan. Unda mazmunli predmetlar rasmlari, gap, bo'g'in, so'zga oid nusxalar, tabiat qo'ynida dars o'tish, muzeylarga sayohat o'tkazish asosidagi darslar ko'rgazmali usulda o'tkazilgan dars sanaladi.

Qisman izlanuvchanlik usuli.

Qisman izlanuvchanlik usuli ham o'quvchilarni o'ylashga, mushohada yuritishga undaydi, aqlini charxlaydi. Buning uchun ham oldindan savollar tuziladi. Beriladigan savollar shunday tuziladiki, o'quvchini izlanishga undaydi. Diqqat o'qituvchiga tortiladi. Shunda o'qituvchi bu savolga o'zi javob beradi.

Qisman izlanuvchanlik usuli, asosan, yangi beriladigan tushuncha va bilimlarni o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, rasmga qarab, tushirilgan harf va so'zni topib, o'rniga qo'yish yarim izlanish usulida hal qilinadi.

Tushuntirish va bayon qilish usullari.

Savod o'rgatishda tushuntirish va bayon qilish usullari ham qo'llaniladi. Bunda o'qituvchi nutq madaniyatiga e'tibor berishi, sodda, ravon, ifodali qilib so'zlashi, materialni izchil, qat'iy reja asosida bayon qilishi lozim. Bola tabiati ortiqcha ko'p so'zlilikni yoqtirmaydi. Shuning uchun o'quvchilarning tinglab o'tirish imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Tushuntirish va bayon qilish usuli yangi mavzuni yoki mavzuning tushunilmay qolgan o'rinlarini qayta o'rgatishda qo'llaniladi.

Reproduktiv metod.

Yuqoridagi metodlardan tashqari, reproduktiv metoddan ham foydalaniladi. Bunda o'quvchilar uchun tayyor gap, so'z, bo'g'in, tovush nuqtalari beriladi. O'quvchilar nusxaga qarab shuncha so'zli gap tuzadilar, uning birinchi so'zi qanday harf bilan yozilishi, oxiriga qanday tinish belgi qo'yilishini izohlaydi.

Bo'g'inlar soniga qarab so'z o'ylab topadilar, uni bo'g'inga bo'ladilar, bo'g'inlar sonini nusxadagiga taqqoslaydilar. Bu bilan so'zlarni bo'g'inlab o'qishga tayyorlanadilar.

Tovush nusxali so'zlar ham o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga da'vat etadi. Nusxalarning unlilar o'rinlashgan joyiga qarab, unga mos so'zlarni tahlil qiladilar. Bular unlilarning bo'g'in hosil qilishini, ularning orinlariga qarab, so'zlar bo'g'inlarga turli tipda bo'linishini anglay boradilar. Aslida, bu nusxalar ham so'zlarni to'g'ri bo'g'inlab o'qishni ta'minlaydi. Yozuv darslarida, asosan, reproduktiv metoddan ish olib boriladi. O'quvchilar daftar va doska – xattaxtdagi ko'rgazmali qurollardagi namunaga qarab nusxa ko'chiradilar⁶.

Reproduktiv metod o'qituvchining tushuntirishlari asosida qollaniladi. Chunki o'qituvchi har bir harfni qayerdan boshlanishi, qanday davom ettirilishi, uning boshqa harfga ulanishi haqida tushuntirish beradi. Biroq nusxa ko'chirish avtomatik nusxa ko'chirishga aylanib qolmasligi lozim. O'quvchiga yozadigan bo'g'in, so'z va gapni oldin o'qitilishi kerak. O'quvchi harflarning ulanishini kuzatib o'zlashtirishi zarur. So'z, ayniqsa, yozilishida xato qilinishi mumkin bo'lgan so'zlar bo'g'in-tovush, tovush-harf jihatidan tahlil qilinishi kerak. Bir harfni almashtirib qo'yish bilan so'z ma'nosining o'zgarishiga oid ta'limiy o'yinlar daftar sahifasidagi til materiallariga bog'lab o'tkazilsa, o'quvchilarda imloviy sezgirlik uyg'ona boradi.

⁶ Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi"

1.3. Savod o`rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi **shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra** ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi **taslikiliy tomondan** quyidagi ikki davrga bo'linadi:

- a) alifbegacha tayyorlov davri;
- b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida **psixolingvistik nuqtai nazardan** quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajra-tishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;

d) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o'qish va yozishga tayyorligiga bog'liq).

2. O'qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so'z yasali-shi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o'qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'limning tarbiyaviy va o'stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy-tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

„Alifbe" sahifalarida do'stlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o'yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan. Bular bolalarda o'zaro do'stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hay-vonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o'qishni sevish, umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Demak, bolalarga axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o'rgatish vazifasiga kiradi.

Eski maktabda uknsh bilan yozish bir vahtda o'rgatilmagan, avval faqat o'qish o'rgatilgan. O'qish xijo (bug'in) usuli bilan o'rgatilgan. O'qishga o'rgatitning "xijjai qadimiy" deb atalgan usuli asrlar davomida xech qanday o'zgarishsiz davom etib kelgan.

Xijo usulida o'qishga o'rgatishni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish (" harfiy metod") Bu metodning mohiyati asosan quyidagilardan iborat:bir necha yildan beri o'qiyotgan bolalar maktab xonaga yangi kelgan bolaga bir necha kichik — kichik su rani ogzaki yodlatgan. Bola aytayotgan suradagi so'zlarining ma'nosini tushunmay, uralarni

birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o'tgan. Shundan keyin arab alfaviti yodlatila boshlagan; bola uyidan xar ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyox bilan 28 ta arabcha harfning yolg'iz shaklini alfavit tartibida bandlarga bo'lib yozib bergan.

Maktabdor birinchi banddagi xarflarning nomini alif, be, te, se deb aytgan; bola domlaga ergashib takrorlagan; ayta olmasa, domla yana aytgan va shuni yaxshilab urganishni vazifa qilib topshirgan. Bola birinchi bandni yodlab olgach, ikkinchi bandni shu tariqa yodlagan va x. Bolalar 28 xarf nomini 5-6 oyda zo'rg'a bilib olganlar⁷. Ular xarflarning nomini yodlab olsalar xam, qaysisi be, kaysisi se ekanini ko'rsatib bera olmaganlar. Ayrim domlalar, otinoyilar yosh bolalarning eslab qolishiga yordam berish maqsadida xar bir xarf uchun shartli iboralar o'ylab topganlar (— uzunchokkina olif, bittagina be, - ikktagina te, uchtagina se kabi).

2-bosqich. Bo'g'in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo'lingach, bo'g'in xosil qilishga, ya'ni "zeru-zabar" ni o'rgatishga o'tilgan. Eski maktabda "zeru-zabar" (zabar, zer, pesh) xar hil o'rgatilgan. Masalan, ba'zi domlalar (beg zabar-ba) (be-zer- bi), (be-pesh- bu); (te-zabar-ta), x. kabi o'rgatsalar, boshqa ba'zilari be ba, te zabar ta,. . . kabi; yana boshkdilari: be—zabar—a; zer—i,pesh—u; te—zabar—a, zer—i, pesh—u . . . deb o'rgatadilar va xokozo.

Maktabxonada "zeru zabar" quruq, yodlatilgan, nimaga xizmat qilishni aytilmagan. Aslida esa bu belgilarning ma'lum xizmati bor: zabar (fatxa)-undosh xarf ustidagi urg'u belgisiga o'xshash chiziqcha bo'lib, undoshga a unli tovushini qo'shib aytish zarurligini ko'rsatadi. zer (kasma) undosh xarf ostidagi chiziqcha bo'lib, shu undoshga i unli tovushini kushib aytish kerakligini bildiradi.pesh (zamma) esa undosh xarf ustiga qo'yiladigan belgi bo'lib, shu undosh tovushga u unlisini qo'shib aytish zarurligini kursatadi. Demak, arabcha matnlarni o'qish uchun "zeru zabar"ni bilish juda zarur bo'lgan, ammo o'qishga o'rgatish anglab o'qishga asoslanmagani uchun, bolalar mim zabar ma mim zer mi, mim pesh mu deb yodlaganlar, "zeru zabar"ning moxiyatini anglamaganlar.

⁷ G'afforova T., G'ulomova X., Eshturdiyeva G. 1-sinfda savod darslari. Toshkent. "O'qituvchi", 1996

3-bosqich. Bug'inlarni qo'shish. Eski maktabda bo'g'inlarni ko'shish "abjad" bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alfavitidagi 28 ta xarf jamlangan 8 so'zni "zeru zabar" bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so'zni birin-ketin xijo usulida o'qib yodlab olganlar. Masalan, abjad so'zi

alifga zabar qo'yib, be ga urishtirilsa, ab; jim ga zabar qo'yib, dolga urishtir qilsa, jal; bo'larning ikkisidan abjad xosil bo'lgan kabi.

Abjaddan keyin eski maktab o'quv kitobi bo'lgan "haftiyak"ka utilgan. "haftiyak"dagi suralar xam "Abjad"dagi kabi xijo usulida o'qilgan. Bolalar "haftiyak"ning bir betini xijo usulida o'qish uchun juda kup vakt va kuch sarflaganlar.

So'zni xijo usulida o'qishda avval so'zdagi birinchi undosh xarfning nomini, keyin ikkinchi undosh xarfning nomini aytib, unga zarur xarakatni qo'yib xijo xosil qilingan shu usulda navbatdagi xarflardan xam xijo xosil qilinib, keyin xijolarni bir-biriga qo'shib, bu so'z bir butunicha aytilgan. So'zni xijo usulida o'qishda tovush emas, balki shu tovushni ifodalovchi harfning nomi asos qilib olingan. So'zni tovush jixatidan tahlil qilishga oid xech qanday ish qilinmagan, tovushlarning ko'shilishi bolalarga tushunarli bo'lmagan, bolalar so'zidagi xar bir xarf ma'lum bir tovushni bildirishini mutlaqo anglamaganlar. Xijo usulida o'qishga o'rgatish, birinchidan, mexanik ravishda bo'lib, ayni bir narsani qayta - qayta aytishga majbur qilingan, ikkinchidan, bola o'zi aytgan so'zining ma'nosini tushunmay, maktabdordan eshitganini takrorlay bergan

"Xaftiyak" ning keyingi ayrim suralari so'zni yaxlit "o'qish" usulida olib borilgan, aniqrog'i bola o'qimagan, eshitganini tutikush kabi yodlagan. Natijada bolalar maktabxonada o'qiganlarini o'zi o'qib yurgan kitobidan "o'qib bergan", ammo ularning qo'lga maktabda o'qilmagan boshka bir kitob berilsa, uni o'qiy olmagan; eski maktabda olti-un yil mungazam o'qilgan bolalarning juda kun deganda 4-5 % igina o'qish va yozish ko'nikmasini xosil qilgan.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynadi. Rus-tuzem maktablarining o'zbekcha sinflarida o'zbekcha xat-savod orgy metodi 1900 yildan boshlab asta~sekin islox qilindi. Xijo

metodidan tovush metodiga o'tildi. 1900 yillardan rus~tuzem maktabi o'zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalanganlar. Bu kitobning tili va mazmuni o'zbekcha sinflarga mos kelmasdi. 1902 yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofik tuzilgan ona tili alifbesi "Ustodi avval" nashr etildi. "Ustodi avval" nashr qilingandan keyin o'zbekcha xat savod o'rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o'rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o'qitishni osonlashtirdi, ta'limni bola tushunadigan, anglaydigan ta'limga, aktiv ta'limga aylantirdi

"Ustodi avval" 3 bo'limdan iborat: 1-bo'lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir. Muallif bu bo'limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e'tiborga olgan. Avtor har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat-savod o'rgatishni kiyinlashtirishini hisobga olgan; alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo'llanadigan harflarni bergan. Shakli yozilish o'rniga qarab turlicha bo'ladigan harflarning so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirilgan. Masalan, q harfini tanitish uchun qor, uyqu, oq so'zlarni, g' xarfini tanitish uchun g'or, uyg'oq, tor so'zlarini tailagan. Avtor soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga, asosan, o'zbek tilining lug'at sostavidagi so'zlardan tanlab olgan.

"Ustodi avval"ning 2-bo'limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo'limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim targib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda⁸.

S. Saidazizov kitobining 3-bo'limini "Alifboi kur'on" deb yatagan va o'z oldiga bolalarga "qur'on"ni tushunib olishga urg'o'tishni maqsad qilib quygan.

Umuman tovush metodi Markaziy Osiyoga ikki manbadan yoyildi:

⁸ G'ulomov A., Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent. "O'qituvchi

1.Rus-tuzem maktablari ruscha sinflarida xat-savod tovush metodi bilan o'rgatilar edi. O'zbekcha sinf muallimlari tovush -metodi oson va qulayligini amalda o'z ko'zlari bilan ko'rdilar va ular rus o'qchituvchilariga taqlid qilib, asta-sekin tovush metodini o'z sinflariga tatbiq eta boshladilar

2.XIX asrning oxiridan boshlab ichki Rossiyadan Markaziy Osiyoga kelgan tatar muallimlari tovush metodida xat-savod o'rgata boshlagan edilar, oradan ko'p o'tmay, bir qancha maxalliy muallimlar ham tatar muallimlariga taqlid qilib, yangi maktablar ochdi-da, bolalarga xat savodni tovush metodida o'rgata boshladi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda tovush metodi asta-sekin xijo metodining o'rnini ola boshladi

Ma'lumki, tovush metodn bilan xat-savod o'rgatishga Rossikda K.D-Ushinskiy asos solib, u sintetik tovush metodini qat'iy ximoya qilgan edi.

Tovush metodi bilan savod o'rgatilganda, so'zning eng kichik bo'lagi, ya'ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So'zning ma'nosini o'zgartira oluvchi har bir tovush yozuvda xarf orqali ifodalanishi: so'zda tovushlar almashishi, ortishi eki kamayipsh natijasida boshqa bir yangi so'z xosil bo'lishi mumkiiligi bolalar ongiga etqaziladi. Keyingi yillarda ham xat-savod tovush metodida o'rgatilmoqda. Atoqli metodistlar (S.P.Redazudov, A-I.Voskresenskaya, K. Qosimova, Y.Abdullaev, O.Sharafiddinov) tovush metodyda xat-savod o'rgatishni takomillashtirdilar.

Arab alfavitida yozuvni o'rgatish qiyin edi. Arab alfavitidagi xarflar so'zda qo'llash o'rniga qarab, xar hil shaklda yozilgan, bu yozishni o'rganishni qyinlashtirgan. Shuning uchun ko'p maktablarda bolalarga o'qish o'rgatilib yozuv o'rgatilmagan , chunki domla va otinoyilarning ko'pchilagi o'qishni bilagan-u, yozishni bilamagan.

Eski maktabda yozish chiziqsiz tekis oq qog'ozga dastlab yo'g'onroq savag'ich qalamda o'rgatilgan : bolalar yozishni ozroq o'rganganlaridan keyin qamish qalamda ham yozishgan, ularga ruchkada yozishga ro'xsat etilmagan.

Yozishni o'rgatish alfavit tartibda harflarning alohida-alohida shaklni yozdirishdan bohslangan. Avval alifni yozish o'rgatilgan, keyin o'xshash shakli

harflar bandlarga bo'linib ,o'z xshash unurni bo'lmaganlari esa ayrim-ayrim yozdirilgan .Ayrim domlalar ba'zi harflarni elementlarini yozish bir – ikki yilga cho'zilgan.

Shundan keyin –harflarni nusxaga qarab alfavit tartibida katta-katta qilib yozish,mufrodot (sarhad) deyilgan :bunday yozish bir – ikki yilga cho'zilgan .

Shundan keyin harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi boshlangan .Bu mashqni murakkabot deyilgan.Harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo'linib ,harf birikmalarining ma'no anglatish – anglatmasligi umuman e'tiborga olinmagan .Qanday qo'shilish mashq qilinavergan.Ko'pgina eski maktablarda bunday mashq “abjad yozish” bilan tugallangan .

Murakkabotdan keyin bayt,qit'a va ruboyilarni ko'chirib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni muqattaot deyilgan.

Bu mashqqa ham juda ko'p vaqt sarflanganu ma'noli so'zlarni yozish bilan boshlanib, duoyi salom (insho)yozish bilan tugallangan⁹.

Yozuvni o'rgatish va husnixat mashq qildirishda (Mufradot) kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada har uchala mashq turi ba'zi nashrlarda esa insho namunalari berilagan.

⁹ G'ulomov M. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. "O'qituvchi"

1.4. Savod o'rgatish davrida bolalarni o'qishga o'rgatish

Ma'lumki, savod o'rgatish hamda o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, mavhum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr ma'suliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarlar nutqini eshitish, diqqatini to'plash, til birliklarini farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin.

Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi: ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini – so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-o-o-t) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasimli alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko'rsatadilar.

Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlash, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi jadvaldan foydalanish mumkin. Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng xor bilan o'qish, yakka-yakka o'qishdan, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni sinf xattaxtasida bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gap tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi¹⁰.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lam, Man-non tipidagi bo'g'inlarda o-la:m, Ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bod-ring, do'st tipidagi bo'g'inda do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda, bo'lib o'qitishdan tashqari, jadvallar ham yaxshi samara beradi.

¹⁰ G'ulomov M. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. "O'qituvchi"

Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nimalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rag'batiga sazovor bo'lishga intiladi. "Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli bo'ladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarirligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim. Masalan, rasmni kuzating. Endi matnni o'qing. Matnda nima haqida gapiriladi? Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi? Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

Yoki: Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi? Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shundagina, matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. So'ng so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi. O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishni o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'qishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, darslikning 51-sahifasida uvol, rizq-ro'z so'zlari bor. Ularning ma'nosi ustida to'xlalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchidan, tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi.

O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish suratini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

1.5. Savod o`rgatish davrida boshlang`ich yozuvga o`rgatish

Yozuv juda qadimiydir. Jahonda 220 xil yozuv hududlar bo`yicha tarqalgan. Madaniyatimiz tarixida Urxun-Yenisey, so`g`d, xorazm, uyg`ur, arab yozuvlaridan keng foydalanilgan. Arab yozuvida VIII asrning 20 -yillaridan XX asrning 20- yillarigacha foydalanildi. Arab yozuvida savod chiqarish murakkabligi tufayli arab alifbosi asosidagi o`zbek yozuvi yaratildi. 1919-1920 o`quv yili maktablarga joriy etildi.

Birinchi marta tovush metodi asosida toshkentlik Saidrasul Saidazizov 1902 yilda "Ustodi avval" ni yaratdi. Bu darslik asosida o`zbek xalqining katta qismi savod chiqardi va yozuvni o`rgandi.

Bog`chasaroylik qrim-tatar millatiga mansub Ismoil G`asfirali ham tovush metodi asosida 40 kun o`qish davomida bolalar savodini chiqarishdek ulkan ishni amalga oshirdi.

1927 -1928 o`quv yili arab grafikasidan lotin yozuviga o`tilib maktablarga joriy etildi. 1940-41 o`quv yilining 1-sentabridan kirill afifbosi asosidagi o`zbek alifbosida xat savod o`rgatish boshlangan.

O`zbekistonda mustaqillik qo`lga kiritilgandan keyin (1991 yil 31 avgust) 1993 yilning 2-sentabrida lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosiga qayta erishildi.

Umumiy ta`lim maktablarida yangi alifbo asosida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1996-97 o`quv yilidan 1 -sinflarda yangi alifboda o`qitish boshlandi. (2005 yil 1-sentabrda tugallanadi)

1940 yil 1-sentyabrdan yozuvga qabul qilingan kirill grafikasi ingichka i va bosimli chiziqlar, kichik va katta yoysimon chiziqlar, har-xil nuqtali qayrilgan chiziqlar va boshqa murakkab shakllarga boy bo`lib, o`quvchini qiynar edi. Shuning uchun 1970 yildan kirill yozuvi soddalashtirildi. Bu haqda hattot M.Gulomovning metodik qo`llanmasi e`lon qilindi.

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni cha-malash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish (I-rasm).


2. Yozuv daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha bosh va kichik harflarni yozish, shuningdek. harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish; bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek. izohlab o'qish bilan tekshirish.

5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

I-rasm



Analitik -sintetik tovush metodi (tovush-tarkib metod).

Metotiga muvofiq, o'qish va yozuv biriigi saqlanadi. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tartib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida so'zni yozadilar. Yozuvga o'rgatishning bu tartibida gcnetik tamoyil buziladi, ya'ni oson harfni yozishdan asta-sekin qiyin harfni yozishga o'tiladi.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka qo'l-harakat malakasidir, bu harakat, birinchidan, muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutq birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning

to'g'ri nisbatini. ikkinchidan, bir qancha grafik va imlo qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalari-dan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar.

Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi. Harf terish kartonida tuzilgan so'zni ko'chirish yoki yozishga tayyorlanishda bolalar uni bo'g'inlab o'qiydilar. Bu o'qish uchun ham, bo'g'inlab aytib yozish uchun ham, imloga oid malakasining o'sishi uchun ham muhimdir.

Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o'z fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzun-likni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va iisti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.

4. Harf birikmalarini, bo'g'inni yozish, harflarni to'g'ri qo'shib yozish malakasini hosil qilish uchun so'z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog'lab, tez, bir maromda yozish, so'zlarni qatorga to'g'ri joylashtirishdir.


Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda „chizadi“, harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi; o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi yoki o'zi yozib tushunti-radi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993-yil 2-sentabrda „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida“gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda bu qonunga o'zgartirishlar kiritildi. Bu alifbo, birinchidan, og'zaki talaffuz bilan yozma nutq mosligini ta'minlaydi, ikkinchidan, jahon xalqlarining 30 foizdan ortig'i mana shu yozuvdan foydalanadi. Bu esa xalqaro aloqa-aralashuvni birmuncha yengillashtiradi.

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflar ham bosmasdan, ortiqcha jimjimasiz, qo'l uzmasdan bog'lab yoziladi. Shuning uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.


Yozuvga o'rgatishning tashkiliy va gigiyenik shartlari. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka bo'lib, xattaxtaga yozishda bo'rdan foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyuq yotiq chiziqlar bilan kesil-gan uch chiziqli daftardan foydalanilgan:



¹¹ G'afforova T., G'ulomova X., Eshturdiyeva G. 1-sinfda savod darslari. Toshkent. "O'qituvchi", 1996

Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan boladan boshlang'ich sinflarni bitirguncha besh xil daftarga yozishni o'rganish talab etilar edi:



Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftari tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfidan, ba'zan 1-sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftari tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftari chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajrnda yozishga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi* Yozuv dar-sida o'quvchilar „Yozuv daftari" bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftari bo'lishi kerak.

O'qituvchi yozish vaqtida 65° qiyaiikda yozishni, buning uchun daftari parta ustiga 25° qiyaiikda qo'yilishini amaliy ko'rsatib turadi.

Yozuv daftari bilan ishlash. Yozuv daftari asosida uyushtiriladigan yozuv darslarida o'quvchilar asosan graiik malakalarni egallaydilar. Yozuv ko'nikmalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu sababli yozuv daftari ham savod o'rgatish jarayoniga mos holda tuziladi.

Yozuv daftarida ta'lim beruvchi, o'rganuvchi-tekshiruvchi va tekshiruvchi mashqlar beriladi. Bu mashqlar bilan ishlash jarayonida lug'at ustida ishlash, to'g'ri talaffuz, og'zaki suhbat, gap va so'z tahlili, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni biriktirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish lurlaridan foydalaniladi.

Yozuv daftarida o'quvchilar „Alifbe"da o'rganilgan harfni yozma shakllantiradilar. Suhbat uchun daftarning yuqori qismida predmet rasmi

yoki biror mazmunli rasm keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so'z chizmasi katakehalarga ajratib berilishi. gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi o'rinlarda o'quvchilar berilgan gap yoki so'z chizmasini o'zlari mustaqil lasvirlaydilar.

Predmet rasmi berilgan o'rinlarda shu predmet nomi - so'z bo'-g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi, so'zdagi tovushlar soni suhbat yo'li bilan aniqlanadi va katakchalarda ranglar bilan belgilanadi.

Mazmunli rasm asosida gap chizmasiga mos gap tuziladi, keyin o'sha gapning tahlili ustida ish olib boriladi.

Harflarning yozma shakli ularning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi.

Yozuv daftarida tinish belgilar qo'llangan. Ular shu belgi uchragan o'rinlarda tanishtirib boriladi.

Yozuvga o'rgatishda o'quvchilarning ko'ruv, eshituv, qo'l harakati sezgilarini ishga solish lozim. Shunda yozuv quruq yozuv bo'lmay, ongli yozuvga aylanadi.

Yozuvga o'rgatishda orfografik elementlar. Orfografiya yunoncha so'z bo'lib, „to'g'ri yozuv“ degan ma'noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq bo'lib, to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til me'yorlari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi. O'quvchilarning imloviy savodxonligi haqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi. fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatish davrida boialarda grafik malakani shakllantirish bilan birga imloga oid malaka ham shaklUantiriladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar quyidagilarni amaliy tarzda o'rganadilar:

a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfning mosligini;

b) so'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni;

d) so'zning satrga sig'may qoigan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni (bunda bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko'chinib yozib bo'lmasligini);

e) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarda o'z-o'zini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yo'l qo'ygan xatolarini topadilar, ularni izohlashga o'rganadilar. Shu davrdanoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.

Gap va so'zlarni yozishdan oldingi tayyorgarlik ishlari, muntazam o'tkazib boriladigan o'z-o'zini tekshirish mashqlari, o'qilgan matnning imlosini kuzatish o'quvchilarda yuqori savodxonlik garovi bo'lgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, ularni yuqori sinflarda o'rganiladigan imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuv darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish. Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o'rgatishning dastlabki kunlaridanoq bolalarning o'z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o'quvchilar yozadigan birinchi so'z ularning jonli nutqidan yoki o'zlari tuzgan gapdan olinishi kerak. Bujarayonda ko'chirib yozish va diktant ijodiy yozuvdan so'ng o'tkaziladi. Bu yozma mashq turlari-ning ongli bajarilishini, o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlaydi. Masalan, bolalar o'qish darsida „Alifbe“ da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o'sha gap yoki hikoyadagi ma'lum bir so'zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv - inshodir. Keyinchalik o'quvchilar alohida so'z yozishdan kichik-kichik gaplarni yozishga o'tadilar.

O'quvchilar gap yoki hikoyani og'zaki ravishda erkin tuza oladilar, lekin yozish uchun o'rganilmagan harf bo'lmagan so'zni tanlashda qi-ynaladilar. Bu jarayonda o'qituvchi yordam berishi va yozuvni kuzatib borishi lozim.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchii ravishda o'tkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak Bunday mashqlar o'quvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, o'z fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishga o'rgatadi.

Yozuv darslarida yuqoridagi kabi mashqlar o'quvchilarning yozma nutqini og'zaki nutqi bilan bog'liq holda o'stirishni ta'minlaydi.

Dars ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. Analitik-sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan savod o'rgatish darslari xilma-xil bo'lishi, o'quvchilarni zeriklirmasligi va charchatib qo'ymasligi kerak.

Savod o'rgatish davridagi o'qish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy bo'lgan asosiy talablar mavjud:

1. Umumdidaktik talablar:

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo'lib, unda bironta axloqiy sifat o'stirilishi lozim;

bu

b) darsning ta'limiy maqsadi, ya'ni o'quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o'rganishi, qanday ko'nikma va malakalar o'stirilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligining qanday bo'lishi aniq belgilab olinishi kerak;

d) darsning izchilligi va istiqboli, uning oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi aniq belgilab olinishi zarur;

e) o'tiladigan materialning xarakteri va ta'lim maqsadidan kelib chiqib dars uchun xilma-xil va qiziqarli metodik usullar va vositalar tanlanishi lozim;

0 dars davomida o'quvchilarga differensial va individual yondashish, ishni barcha o'quvchilarning imkoniyati, bilimi, ko'nikma va malakasi hamda fikrlash faoliyatini hisobga olgan holda uyushtirish kerak;

g) o'quvchilarni aqliy mehnat (o'qish) usullariga o'rgatish, ularda maktabda o'qish uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilish zarur;

i) beriladigan material ilmiy, o'quvchilar yoshiga mos va muvofiq bo'lsin va hokazo.

2. Maxsus metodik talablar:

a) o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o'qish darsida ham, yozuv darsida ham o'quvchilar nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og'zaki hikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

d) maktab va sinf devorlariga osilgan, xattaxtaga yozilgan har qanday yozuv mazmunan va imlo jihatdan savodli bo'lishi zarur;

e) darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak;

I) o'qish va yozuv ko'nikma-malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi o'rinni egallab, taxminan, darsning uchdan ikki qismiga to'g'ri kelishi lozim;

g) har bir o'qish va yozuv darsida „Alifbe"dagi matnlar bilan bir qatorda Q. Muhammadiy, P. Mo'rnin, Z. Diyor, A.Obidjon kabi sevimli bolalar shoiri'va yozuvchilari asarlaridan namunalar tanlab olinishi va sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish hamda o'qib berilgan matnni eshitish bilan bog'lanishi zarur,

i) o'qish va yozuv darslari bir-biri bilan uzviy bog'lanishi, ya'ni o'qish darsi o'quvchilarni yozuv darsiga tayyorlashi, yozuv darsi oldingi o'qish darsining davomi sifatida xizmat qilishi kerak va hokazo.

O'qish va yozuv darslarining turlari. Savod o'rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi:

1. Ta'limning predmetiga ko'ra:

a) „Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari;

b) „Yozuv daftari" asosidagi yozuv darslari.

2. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra:

- a) alifbogacha bo'lgan davrdagi darslar;
- b) alifboni o'rganish jarayonidagi darslar.

3. Darsda yangi mavzu o'tilishi va o'tihasligiga ko'ra:

- a) yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darslari;
- b) yangi harfni yozish darslari;
- d) yangi tovush-harf o'rganilmaydigan darslar;
- e) yangi harf yozilmaydigan yozuv darsi.

Butardan tashqari, umumlashtiruvchi va takrorlash darslari hamda savod o'rgatish davrining oxirida „Alifbe" bayrami o'tkaziladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog'lab aniqlanadi, bog'lanishli nutqni o'stirish ham o'qish va yozuv darslariga uzviy bog'lanib ketadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlariga rahbarlik qilishlariga haftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi. Savod o'rgatishning tayyorlov davrida darslar 35 daqiqa, asosiy (alofbe) davrida 45 daqiqa bo'ladi.

Savod o'rgatish darslarida ish turlarini almashtirib turish, vaqti-vaqti bilan dam olisli daqiqalari o'tkazish zarur. Bu o'quvchilar toli-qishining oldini oladi.

Darslar tizimi deyilganda o'quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlangan, darslarning mantiqiyliigi va istiqboli bir-biri bilan bog'langan, dars turlari va unda o'qituvchi bilan o'quvchilar foydalanadigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo'lgan izchillik nazarda tutiladi.

Savod o'rgatish davri uchun darslar tizimi o'quv jarayoni bosqichlari asosida o'qish va yozuv darslari muayyan guruhini ajratish'ni ko'zda tutadi. Amaldagi „Alifbe" darsligi va ularga yozilgan qo'Uanmalarga asosan. savod o'rgatishga jami 4 oy (shimdan tayyorgariik davriga 8 dars (ikki hafla), asosiy davrga qolgan vaqt) ajratiladi. Ta'limning har bir bosqichidagi darsning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar qurilishida ichki

mantiqiylik bo'lib, har bir darsda yangi tovush va harf o'rganiladigan dars bilan yangi mavzu o'rganilmaydigan darsni navbatlashtirish, imlo va so'zning bo'g'in tuzilishi haqida ma'lumot berish, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar umumlashtirish-takrorlash darsi bilan yakunlanadi.

Savod o'rgatish davridagi darslarni interfaol usullardan foydalanib tashkil etish katta ahamiyatga ega.

II bob. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirish usullari

2.1.Boshlang'ich sinflarda o'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablar

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Nutq o'stirish maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi sanaladi. Maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o'rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich sinfning har bir bosqichida doimiy bajarilishi zarur muhim ish turi lug'at bilan ishlashdir.

Lug'at bilan ishlash davlat ta'lim standartida belgilab qo'yilgan. 2-sinfda 23 soat, 3-sinfda 54 soat, 4-sinfda 23 soat so'z ma'nosini o'rganishga ajratilgan, yoki har bir sinf ona tili darsligini oxiridalug'at berilgan. Bu berilgan soatlar, lug'at so'zlar miqdori so'z ma'nosi ustida ishlashning ma'zuliyliligini belgilaydi. Umuman tilshunoslikning katta bo'limi leksikologiya yana o'z ichida leksikografiya, frazeologiya ham so'z ma'nosi bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda faqat tilshunoslikka doir bir necha lug'atlar – "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tili frazeologiyasining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tilining izohli sinonimlar lug'ati", "O'zbek tilining paronimlar lug'ati", "O'zbek tilining morfemik lug'ati" va yana boshqa lug'atlarga egamiz.

O'zbek tilining lug'ati bilan shuni belgilaydiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi har bir ona tili va o'qish darsida 4-6 so'z, hamma darslarda bir kunda 8-10 yangi so'zni o'zlashtirishni talab etadi. So'z bilan ishlashda o'quvchining puxta o'zlashtirmagan so'z ma'nosiga aniqlik kiritish, ularni ma'nosi yaqin so'zlar bilan qiyoslash, so'zning kinoyali ma'nosi, ko'p ma'noliligi ustida ishlash, ma'noviy sinonimlarning ma'no nozikliklari ustida ishlash, ayrim frazeologik birliklar, tasviriyl ifodalar bilan ishlash zaruriylati kelib chiqadi.

Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlardan o'quvchilar nutqini tozalash ham muhim vazifadir. O'quvchilar lug'at boyligini badiiy asarlarni o'qitish, ularda uchraydigan yangi so'zlarni, chetdan o'zlashgan so'zlarni, fanga doir atamalarni o'zlashtirish ustida lug'aviyl ishlar olib boriladi.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, emostiylani bildiradi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolliyi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib

ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi; o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik «Uzbek tilining izohli lug'ati» da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda berish, o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsabuyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida, ro'yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foqhdalanishni bilishi va awalo, uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilishi zarur.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali kechadi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqaaralashuvga ehtiyoj sezadi; o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zaruriyat seza boshlaydi. Awalo, shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga yo'l ochadi. «Ona tili» o'quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go'zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo'yoq berish, nafasat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo'yiladi. Ana shu muhim talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib, so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa-buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so'zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (xat, maktub, axborot, voqeanavislik va h.k.) vositasida fikr almashtira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so'zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo'li og'zaki nutqdir¹².

Og'zaki va yozma nutqning o'z nutq sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, o'zlovchining baland ovozda to'xtamlar (pauzalar)ga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni

¹² Qiyasova Q. Til darslarida o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. Toshkent. 2003 -yil, 5 -son

sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o'zaro to'g'ri bog'lanishi, bog'lovchilar, olmoshlar, soha atamalari, ovoz tembri, ohang kabilarni to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor berish lozim. O'quvchining bunday nutqi uzundan-uzoq jumalardan, ortiqcha so'zlardan, odat tusiga kirib qolgan takrorlardan xoli bo'lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o'quvchining so'zlovchilarga nisbatan qanday turishiga, qo'l, ko'z, bosh, bo'yin, oyoq harakatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Xalqimiz qadimdan bunga juda katta e'tibor bergan. Shuning uchun «So'zni aytgin uqqanga» maqolida nutqni tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta'kidlangan.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab mazmundorlikdir. Shuni unutmaslik lozimki, nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo'ladi. O'quvchi faqat bilgan narsalarini, o'zi xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritilgan fikrigina o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi. Mazmunsiz fikr na shaxsning o'ziga, na o'zgalarga yoqadi. O'quvchiga o'zi o'qigan, kuzatgan, bilgan narsalar yoki voqea-hodisalar xususida yozish ancha oson kechadi.

Suhbat, hikoya, insho uchun o'qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealari boy material bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri fikrning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Nutq mantiqiy fikrlash mahsuli. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan.

Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va birbiridan farqi aniqlab olinadi; shu asosda muhim xulosalar chiqariladi. O'quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqan to'g'riligi esa avvalo fikrlarning aniq va birbiriga izchil bog'langanligi, mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, mujmal jumlar bo'lmasligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishi demakdir.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barangligidir. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, «so'z-olmosh», «so'z-ibora», «so'z-tasviriy ifoda», «so'z-ramziy belgi» sinonimiyalaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo'ladi. Timing bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-barangiik baxsh etadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri uning aniq bo'lishidir. Nutqning aniqligi bu faqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so'z, so'z birikmalari va gaplar tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi.

Shuning uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo'ladi, mantiqiy urg'uni o'rinli qo'llaydi. Shu sababli, ifodali o'qish malakalari faqat adabiyot darslaridagina emaslan, balki ona tili mashg'ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim.

Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning soddailigi va sofligidir. Sodda nutq awalo tushunarli bo'ladi. Nutqning tushunarll bo'lishi, bir tomondan, fikrni lo'nda, aniq bayon qilish, «tushunarli bo'lmagan g'aliz jumalardan saqlanishda patouop» bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajalanga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o'zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Nutqning sofligi avvalo uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o'quvchilar nutqida har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlar, o'zbek adabiy tiliga xos bo'lmagan so'zlar ko'p uchraydi. Nutqni bunday so'zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo'yilgan talabni hisobga olib, ikkinchisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfda qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina nutq o'stirish samarali kechadi¹³.

¹³ G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: 2012. 303-310-b.

Maktabda lugʻat ustida ishlash metodikasi toʻrt asosiy yoʻnalishni koʻzda tutadi:

1. Oʻquvchilar lugʻatini boyitish, yaʼni yangi soʻzlarni, shuningdek, bolalar lugʻatida boʻlgan ayrim soʻzlarning yangi maʼnolarini oʻzlashtirish. Ona tilning lugʻat boyligini bilib olish uchun oʻquvchi oʻz lugʻatiga har kuni 8-10 ta yangi soʻzni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 soʻzni qoʻshishi, yaʼni shu soʻzlar maʼnosini oʻzlashtirishi lozim.

2. Oʻquvchilar lugʻatiga aniqlik kiritish. Bu ichiga quyidagilarni oladi:

1) oʻquvchi puxta oʻzlashtirmagan soʻzlarning maʼnosini toʻliq oʻzlashtirish, yaʼni shu soʻzlarni konmatnga kiritish, maʼnosi yaqin soʻzlarga qiyoslash, antonim tanlash yoʻllari bilan ularning maʼnosiga aniqlik kiritish;

2) soʻzning kinoyali maʼnosini, koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻzlashtirish;

3) soʻzlarning sinonimlarini, sinonim soʻzlarning maʼno oʻtishlarini oʻzlashtirish;

4) ayrim frazeologik birliklarning maʼnosini oʻzlashtirish.

3. Lugʻatni faollashtirish, yaʼni oʻquvchilar maʼnosini tushunadigan, ammo oʻz nutq faoliyatida ishlatmaydigan passiv lugʻatidagi soʻzlarni faol lugʻatiga oʻtkazish. Buning uchun soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi va gaplar tuziladi, ular oʻqiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatishadi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan soʻzlarni oʻquvchilar faol lugʻatidan passiv lugʻatiga oʻtkazish. Bunday soʻzlarga bolalarning nutq muhiti taʼsirida oʻzlashib qolgan adabiy til normasiga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va soʻzlashuv tilida qoʻllanadigan sodda soʻz va iboralar, mahalliy sheva va ijtimoiy guruhga oid soʻzlar kiradi. Adabiy til normasi degan tushunchani oʻzlashtirgach, oʻquvchilar yuqorida izohlangan soʻzlar oʻrniga adabiy tildagi soʻzlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid soʻzlar, soʻzlashuv tilida ishlatiladigan sodda soʻz va iboralar oʻquvchilarning faol lugʻatidan chiqib keta boradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar lug‘atini boyitishda lug‘at ustida ishlash metodikasining asosiy vazifalaridan kelib chiqib, o‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan asosiy talablarni amalga oshirish lozim¹⁴.

2.2. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar nutqini boyitish manbalari

¹⁴ Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi . - Toshkent . “НОШИР” , 2009. – 308-б.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrofni o'rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarni o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiatga, qurilishga, muassasaga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar, ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

2. O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. Shayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uyg'un, A.Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla, Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi *yoqimtoy, shirinso'z, mehribon; haqqoniy, botir, mard, jasur; mehnatsevar* kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlarni, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlataladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

3. Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

4. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va orfografiyani o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi; bolalar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar; bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishi o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

5. Bulardan tashqari, **kinofilm va televizor eshittirishlarining matnlari**, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

6. **Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati» mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli tefminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

7. **So'zlarning ma'nosini tushuntirish** o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa (matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmay), shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan,

kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn tagida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunday izohlar o'qish kitoblarida anchagina.

3. So'z ma'nosini shu so'zning sinonimi yordamida tushuntirish. Masalan, *sabo* - *shabada*, *mudofaa* - *himoya*, *sozanda* - *muzikachi*, *mashshoq*, *diyor* - *vatan*, *inshoot* - *qurilish*, *samo* - *osmon* kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) a'amiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, *loqayd* tushunchasini *faol* tushunchasiga, *merov* so'zini *tuyg'un (sezgir)* so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha bilan, ya'ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'zboshimchalik - o'z xo'ishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis – biror hunar egasi; shunqor - uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh – mol terisidan tikilgan idish; meshkobchi - meshda suv sotuvchi.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, *kombayn* - *bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi*; *eksavator* - *bir vaqtning o'zida yerni qazib tuproqni*

*yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy*¹⁵.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, *yantoq - suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; akula - okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq*.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

So‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi, nutqini ravonlashtiradi.

8. Sinonimlar ustida ishlash .Sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan bir umumiy tushuncha(ma’no) ifodalaydigan so‘zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo‘shimcha ma’no ottenkasi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. *Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* sinonimik qatorni tashkil qilgan so‘zlardan *katta* s^ozi keng tushunchani anglatib, konkret tushunchaga nisbatan ham, mav³um tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. *Ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, azamat, ulkan* so‘zlari hajmi ancha katta bo‘lgan narsalarga, *bahaybat, haybatli* so‘zlari esa o‘lchovi juda katta bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. *Yirik* kam ishlatiladi. *Gigant* kitobiy uslubga xos bo‘lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo‘llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun sinonim bilan ishlash muhim: lug‘atda sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, tilning ifodaliligi shuncha ortadi. o‘zbek tili - sinonimlarga boy til.

“Uzbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da *katta* so‘zining 11 ta, *marta* so‘zining 13 ta sinonimi berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1- sinfdan boshlanadi: o‘quvchilar

¹⁵ Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya. Andijon. 2006

berilgan soʻzning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga; 2-3-sinflarda esa berilgan soʻzning 2-3 sinonimini topib aytishga oʻrgatiladi.

Boshlangʻich sinflarda sinonimlarga oid quyidagi kabi mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan sinonim soʻzlarni guruhlash. Bir soʻz turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi soʻzlar ichiga bir-ikkita boshqa soʻz kiritib beriladi. Oʻquvchilar sinonimlarni ikki guruhga ajratib aytadilar. Buning uchun soʻzlar quyidagi kabi berilishi mumkin: *vatan, maqsad, kitob, diyor, niyat, mamlakat, murod*.

2. Berilgan soʻzga sinonim tanlash. Uqituvchi otni oʻtganda *osmon*; sifatni oʻtganda *mazali*; feʼlni oʻtganda *koʻnikmoq* soʻzlarini aytadi. Uquvchilar bu soʻzlarga sinonim tanlaydilar: *osmon-koʻk, samo, falak; mazali - lazzatli, laziz, totli, xushxoʻr; koʻnikmoq - oʻrganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq*.

3. Tushirib qoldirilgan sinonim soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib, matnni koʻchirish. (Bunda yozilishi kerak boʻlgan sinonim soʻzlar roʻyxati tekshirish uchun beriladi.) oʻquvchilar sinonimlarni oʻrniga qoʻyib, ularning qoʻllanishidagi farqni tushuntiradilar.

4. Sinonimlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchirish. Buning uchun sinonim soʻzlar qatori qavs ichida beriladi, oʻquvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni koʻchiradi: *Daryo suvini (bahor, koʻklam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (Ot, olov, alanga)da, odam meʼnatda bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar*.

5. Sinonim soʻzlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun toʻrtta sinonimik qatordagi soʻzlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. Uqituvchi shu katakchalardagi bir soʻzni aytadi. Masalan, *katta*. Uquvchilar shu soʻzga yaqin maʼnoli soʻz (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: *katta, ulugʻ, gigant, buyuk*. Sinonim soʻzlar qatori bilan soʻz birikmasi tuzadilar: *katta bino, uluʼ bayram, gigant qurilish, buyuk shahar*.

9. Antonimlar ustida ishlash. Qarama-qarshi, zid ma'no bildiradigan so'zlar antonimlar deyiladi. Antonimlar belgi bildiradigan so'zlarda ko'p uchraydi. Antonimik munosabat so'z bilan frazeologik birlik (ibora) orasida ham bo'ladi (*yalqov - yuragida o'ti bor* kabi).

Boshlang'ich sinf o'quvchilari antonimlar bilan amaliy tanishtiriladi. Antonimlar ustida ishlash matndan antonimni topishdan boshlanadi, keyin maxsus mashqlar ishlatiladi:

1. Berilgan so'zga antonim tanlash. Otni o'tganda: *azob* - ... , *do'stlik* - ... , *yoz* - ... , *yoshlik* - ... , sifatni o'tganda: *faol* - ... , *anqov* - ... , *ahil* - ... , *dono* - ... , *kasal* - ... , fe'lni o'tganda: *kasallandi* - ... , *yondi* - ... , *boshladi* - ... kabi beriladi; o'quvchilar berilgan otga *rohat*, *dushmanlik*, *qish*, *qarilik*; sifatga *passiv*, *hushyor*, *noahil*, *nodon*, fe'lga *sog'aydi*, *o'chdi*, *tamomladi* antonimlarini tanlab, jufti bilan yozadilar.

2. Antonim so'zlar bilan gap tuzish. Uqituvchi antonim tanlab gap tuzish uchun so'z beradi, o'quvchilar berilgan so'zga antonim tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar.

3. Berilgan gapga antonim topib qo'yish. Uqituvchi *To'g'ri odam ... so'zdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ... kelsa oshga. Yaxshi gap - moy, ... gap - loy. Gapni oz so'zla, ishni ... ko'zla* kabi gaplar beradi, o'quvchilar gap mazmuniga mos antonim topib, gapni o'qiydilar (yoki yozadilar).

Uquvchilar lug'atinn sinonim va antonimlar bilan boyitish o'z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

10. Ko'p ma'noli so'zlar va omonimlar. Mantiqiy mashqlar. O'quvchilarga ko'p ma'noli so'zlar uchrab turadi, ammo ular ko'p manoli so'z ekanini tushunib yetmaydilar.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so'zlar ko'p ma'noda ishlatilishini tushuntirib boradi. Shu bilan birga, maxsus mashqlar ham ishlatiladi.

Soʻzlarning soʻz birikmasidagi maʼnosini qpyoslash: *soat yurdi, poezd yurdi, ukam yurdi; tosh yoʻl, tosh yurak; kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish.*

Gaplarni oʻqib, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning maʼnosini aytish: *Bu yil yoz issiq boʻldi. Sen oʻrtogingga xat yoz.*

Boshlangʻich sinflarda koʻp maʼnoli va omonim soʻzlar yuzasidan nazariy maʼlumot berilmaydi, bunday tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik koʻriladi, xolos.

11. Oʻquvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar oʻqish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va taʼsirchan boʻladi; maqollar oʻquvchilarning badiiy didini oʻstiradi, nutqqa eʼtibor bilan qarashga, toʻgʻri, mantiqiy fikrlashga oʻrgatadi, estetik tarbiyasida muhim oʻrin tutadi. Oʻqish kitoblarida mavzuga bogʻliq holda, oʻzbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda koʻp maqollar beriladi. oʻquvchilar maqollarni oʻqib, oʻqilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bogʻlaydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim soʻz va iboralarniig maʼnosini tushuntiradilar. Natijada oʻrni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

Maqollar oʻqilgan asarning xulosasi sifatida ishlatilib, koʻpgina asarlarning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Masalan, “Ovchi, Koʻkcha va Dono” ertagining xulosasi sifatida “Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar”, “Ahillikda hikmat koʻp”, “Birlashgan kuch yengilmas”, “Doʻstlar ahil boʻlsa, ish oson boʻlur” maqollari; “Odobli boʻlish osonmi?” (A. Obidjon) asaridan soʻng “Odob - kishining ziynati”, “Odobli bola elga manzur”, “Ilmning kattasi – odob”, “Aql yoshdan, odob boshdan” maqollari beriladiki, bular shu asar mazmunining magʻzini ochib beradi. Uquvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berplgan topshiriqlarni jon-dildan bajaradilar. Oʻqituvchi shularni hisobga olib, maqollar bilan xilma-xil mashqlar ishlatish orqali oʻquvchilarga soʻzlarning majoziy maʼnosini, koʻp maʼno ifodalashini amaliy singdirib boradi.

12. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi.

O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob'ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyisini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va unni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Mantiqiy mashqlar juda xilma-xil:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (*ko'ylak, kostyum, . . .*) va oyoq kiyimlar (*botinka, tufli, . . .*); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «*Bu nima?*» so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: *Bu nima? - Avtobus. Avtobus nima? - Mashina.*

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. *Masalan, stol, stul, shkaflarni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel)*

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. *Masalan, qalam, pero, chizg'ich, o'chirg'ich, stul ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, stul o'quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.*

Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: *qaldirchoch, chumchuq, mushuk, musicha.*

Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar *choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka* kabi aralash beriladi; bolalar guruhlab, *idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ...*

kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan soʻzlar ham aralash beriladi, bolalar toʻrt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar¹⁶.

Qarama-qarshi qoʻyish bilan umumlashtirish: *qaldirgʻoch, chumchuq, bulbul - qushlar, tovuq, xoʻroz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)*

2.3. Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar nutqini oʻstirish.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod oʻrgatish ham, oʻquvchilar nutqi va tafakkurini oʻstirish bilan bogʻliq holda uyushtiriladi. Savod oʻrgatish davridagi ishlarning miqyosi keng boʻlib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, fan darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bogʻlanadi. Bu davrda oʻquvchilar nutqini oʻstirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni toʻgʻrilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bogʻliq holda lugʻatini boyitish;
- 3) oʻquvchilar nutqidagi ayrim soʻzlarning maʼnosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-toʻrt gapli kichik “hikoyacha” (bogʻlanishli nutq)ni ogʻzaki toʻgʻri tuzish koʻnikmasini oʻstirishdan iborat.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi narsalar bilan tanishish yordamida soʻzni ovozli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yigʻiq gap (*Bolalar yuguryapti*), sodda yoyiq gap (*Lola doʻkonga bordi*), uyushiq boʻlakli gap (*Anvar oyisiga yordamlashdi, ukasiga qaraydi*), qoʻshma gap (*Oʻgʻil bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti*) tuzadilar. Ular bu koʻnikmalarni amaliy-mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq oʻstirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Fanlar, uy-roʻzgʻor asboblari, oʻsimliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu boʻlib xizmat qiladi.

Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

¹⁶ Qosimova K. “Boshlangʻish sinflarda ona tili oʻrgatish metodikasi”. - T.: “HOШИП”, 2009, 316-6.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va *Bu nima? Bu kim? Bu qanday fan? Kim nima qilyapti?* kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'ragatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli narsalarning nomini, ularning belgilarini aytish, narsalarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi.

Masalan o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum ber mavzuda (*kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida*) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchini savollariga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Fan: Alifbe

Mavzu: "V tovushi va V v harflari"

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy:

- a) O'quvchilarni V tovushi va uning yozuvdagi ifodasi Vv harflari bilan tanishtirish;
- b) v tovush- harfining so'z tarkibida aniqlay olishni o'rgatish;
- d) " Vatanim " she'rini bo'g'inlab o'qishni o'rgatish.

2. Tarbiyaviy:

- a) o'quvchilarning "vatan" so'zi haqida tushunchalarini kehgaytirish;
- b) vatanga, ota - onaga munosib farzand bo'lish bo'lish tuyg'usini singdirish;

3. Rivojlantiruvchi:

- a) o'quvchilarning "v" harfi bilan bog'liq so'z boyligini oshirish;
- b) og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish;
- d) mustaqil fikrlashlarini shakllantirish.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Nazariy va amaliy.

Dars metodi: Og`zaki, amaliy, ko`rsatmalilik.

Dars jihozi: Televizor, soat, rangli qog`oz, rangli markerlar

Darsning texnik vositalari: Kompyuter, multimediya .

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism:

O`quvchilarni dars shiori bilan tanishtirish -

“BU MUQADDAS VATANDA AZIZDIR INSON”

II.Kirish:

O`quvchilarning o`tilgan harflar yuzasidan bilimlarini harf kassasi bilan ishlash orqali mustahkamlash.

1-qator: **“J”** harfi ishtirokidagi so`zlar ( m: jo`ja, jiyda,jasorat)

2-qator:**“G”** harfi ishtirokidagi so`zlar ( m: g`alla, g`alaba` G`ayrat)

3-qator:**“Z”** harfi ishtirokidagi so`zlar ( m: zina, ziyrak, zog`cha)

O`quvchilar kesma harf va bo`g`inlardan hosil qilgan so`zlarini o`qitish va rag`batlantirish.

III. Mavzu bayoni

1. O`quvchilarga **“V”** tovushini talaffuz qildirish, havo oqimi og`izda qanday to`siqqa uchrayotganligini (tepadagi old tishlar pastki labga tegib, undosh tovush hosil bo`ganini) aniqlash.

2. Tovushning yozuvdagi ifodasi **“Vv”** harfi bilan ko`rgazmali qurol yordamida tanishtirish

3. Har bir qatorga topshiriq berish: 1-qator **“V”** harfi so`zning boshida , 2-qator so`zning o`rtasida, 3-qator so`zning oxirida kelishiga imkon qadar misollar keltiradilar (berilgan rasmlar misollar topishga yordam beradi).

vatan

tovuq

olov

vazifa

navro`z

tanlov

varrak

televizor

darrov

vaqt	ovqat	palov
vergul	meva	kuyov
velosiped	svetofor	undov

4. Darslik bilan ishlash. Berilgan so'zlarni bo'g'inlab o'qitish:

Va- tan	Na-vo-iy
Vo-diy	Gav-har
To-vus	Vo-hid
To-vuq	Mav-ju-da


5. Dam olish daqiqasini o'tkazish:

Vatanim, volidam va tanda jonim,

Vatan ishq bilan o'tar har onim.

1. Darslikda berilgan so'zlar necha bo'g'indan iboratligi va qanday ma'no anglatishini tahlil qilish. Ularni ishtirok ettirib gaplar tuzish.

2. "Aqliy hujum" usulidan foydalanib " Vatan deganda nimani tushunasiz?" savoliga javob olish, o'quvchilar fikrini umumlashtirish



3. O'qituvchi tomonidan darslikda berilgan " Vatanim " she'rini ifodali o'qib berish. O'quvchilar bilan birgalikda bo'g'inlab o'qish. She'r mazmunini tahlil qilish orqali buyuk ajdodlarimizdan o'rnak olgan holda vatanga, ota-onaga munosib farzand bo'lish, buning uchun albatta bilim olish lozimligini bahs-munozara orqali tushuntirish.

IV. Mustahkamlash. Vatanimizni hozirgi kundagi ko'rinishini ifodalovchi slaydni namoyish etish.

V. Dars yakuni. Savollar orqali darsga yakun yasash. Dars jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish .

VI. Uy vazifa: “V” harfiga oid so'zlarni o'qish, “ Vatanim” she'rini yod olish.(58- sahifa)

Maktabda ilm o'rganish jarayonida o'quvchi nutqini o'stirish, lug'atini boyitish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi, chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bolalar nutqini o'stirishda nutq jarayonining mazmundorligiga mantiqan to'g'ri va aniqligiga, sodda va sofligiga e'tibor berish lozim. Tegishli nutq madaniyatini ta'minlash, o'quvchilarga ortiqcha so'zlar, siyqasi chiqqan iboralardan qutilishda mohirona maslahatlar ko'magida yordam berish, aytilgan har bir mustaqil fikr, mulohaza so'zlarning, o'ylab topilgan yangi misollarning sifatliiligi uchun rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

O'yin kichik yoshdagi o'quvchilarni faollashtiradi, ular o'rtasida ahillik, birlik, g'oliblik uchun intilishni kuchaytiradi. Umuman dars jarayonida o'quvchilarning charchog'ini yo'qotish va ularning og'zaki nutqini o'stirishga yordam

beradigan o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi deb o'ylayman. Sabab bola o'yin faoliyatiorqali anchagina ko'nikma hosil qiladi va biz uni rivojlan tirib borishimiz zarur.

Quyida ana shunday o'yinlardan namunalar keltiramiz.

1-o'yinning jihozi - har bir o'quvchi uchun alohida harflar hamyonchasi. O'yining borishi: har bir tovush va harf hakida o'quvchilarga tushuncha berilgandan so'ng tovushlarni talaffuz qildirish, shu harfni kesma harflar ichidan yoki matn ichidan topib ko'rsatish o'yini tashkil kilinadi. O'yinning maqsadi bolalarda tovush va harf haqida tushunchalarni shakllantirish, tovushlarni sof talaffuz qilishga o'rgatnshdir.

2-o'yinning jihozi – magnit taxtasi va harflar. Magnit taxta orqali o'quvchilarning og'zaki nutqda o'rgangan harflarini yozma shaklada tekshirib ko'rish mumkin. Buni amalga oshirish uchun o'quvchilarning yangi harfga doir

tuzgan soʻzlarini kesma harflardan magnit taxtasiga yozib borishlarini talab qilish va bu borada guruhlararo musobaka ham oʻtkazish kerak.

3-oʻyinning jihozi – katta va kichik kesma harflar. Oʻquvchilar lugʻatini boyitishning qiziqarli turlaridan yana biri – kesma harflarni oʻqituvchi stoli ustiga teskari qilib qoʻyadi. Sinf oʻquvchilari ikki guruhga ajraladilar va har bir guruhdan oʻquvchilar chaqiriladi. Ular teskari turgan harflardan olishadi. Olgan harflari bilan boshlanadigan soʻzlar toishadi. Keyingi oʻquvchilar shu soʻz ishtirokida gaplar, gaplardan kichik matn tuzadilar. Oʻyin shunday davom ettiriladi.

4-oʻyinning jihozi – meva va sabzavotlar. Meva va sabzavotlar orqali oʻquvchilarning lugʻatini boyitish, nutqini oʻstirish uchun ularning rasmlarini emas, aynan oʻzini koʻrsatish qiziqarliroq boʻladi. Bu esa oʻquvchilarning idrok etish salohiyatini rivojlantiradi. Masalan: olma, anor, uzum, karam, sabzi, piyoz, pomidor, bodring koʻrsatilgandan soʻng bolalar ularning nomini aytadilar. Birinchi guruhdagi oʻquvchilar meva va sabzavolarning nomini aytsa, ikkinchi guruhdagilar koʻrinishini aytadilar: dumaloq, qizil, sariq, uzunchoq, yashil. Uchinchi guruhdagilar mazasi haqida maʼlumot beradilar: achchiq, shirin, suvli, nordon.

Oʻyinning ikkinchi usulida birinchi guruhdagi oʻquvchilar narsalarning nomlarini aytsalra, ikkinchi guruhdagilar bu soʻzlarni boʻgʻinga ajratadilar va unli tovushlarni topadilar. Musobaqa shu soʻzlar bilan gap tuzdirish yuilan davom ettiriladi¹⁷.

"Aksincha aytish" oʻyini.

Oʻyin quyidagicha tashkil qilinadi. Biror bir predmetning sifati yo belgisini aytib shar yoki kaptok oʻquvchiga irgʻitiladi. Oʻquvchi uning qarama qarshi maʼnosini anglatadigan soʻzni aytishadi. Masalan: shirin-nordon, baland-past.

"Tez-tuz" oʻyini.

¹⁷ <http://nauka-pedagogika.com>. Хамдамова М. 3. 1-, 2-синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириши тизими. 13.00.02 — Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент — 1998

Stol ustida har xil predmetlar rasmi qo'yiladi. Orqasiga raqam yozilgan. O'quvchi raqamni aytadi. Shu raqamdagi predmet olinadi. Masalan: olma rasmi. Tez shu predmetga gap tuzishi kerak. *Olma. Bog'imizda olma daraxti ko'p.* O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

"Hikoya tuz" o'yini.

So'zlar beriladi. Shu so'zlar asosida hikoya tuziladi. Masalan: daraxt. Hovlimizda katta mevali daraxt bor...

"Bu nima" o'yini.

Bunda ham shar va koptokni goh u, goh bu bolaga irg'itib so'z aytiladi. Stol, stul – bu uy jihozi... deb javob berishlari kerak.

Dars davomida o'tkaziladigan dam olish daqiqalari, kichik she'rlar ham o'quvchiga ruhan ozuqa beradi, o'quvchilar zerikmaydilar.

Quyida ustozim she'rlardan namunalar keltiramiz.

Quyoning, quyoning	Olma, o'rik
Ne bo'ldi	Termabsan.
Kasalga o'xshab	Rahmat, akajon
O'tiribsan	Demabsan.

Nilufar, sen
Chalpak sol
Shohruh, Behzod
Surnay chal
To'rt-besh chelak yong'oq ter,
Yarmisini menga ber.
Bir, ikki, uch,
Bir, ikki, uch,
Keyinda qolgan
Hammadan puch.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi xar bir mavzu bo'yicha mufyan shakldagi ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi, avvalo ta'limiy o'yinlarning ta'lim- tarbiyaviy maqsadini belgilab, o'yinga kerakli matetiallarni tayorlab, o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay tuzatib borish kerak. O'yin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.

“So‘z” o‘yini.

Qaysi touvush (harf) so‘zlarning manosini o‘zgartiryapti?

1-variant – og‘zaki. Bunda o‘qituvchi navbat vilan so‘zlarni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar qo‘l ko‘tarib so‘zning ma‘nosini o‘zgartirayotgan tovushni aytadi va ma‘nosini o‘zgartirayogan so‘zlar shitirokida og‘zaki kaplar tuzadilar.

2-variant - yozma ravishda. Bunda ikki guruxdan iborat o‘quchilar musobaqa tarzida xat taxtaga yozilgan so‘zlarning manosini o‘zgartirayotgan xarfning tagiga chizib borishadi.

O‘yin uchun so‘zlar.

Bil	besht	boz	bozor
Bal	bo‘sh	bez	bezor
Bel	bosh	bo‘z	bezor
Bo‘l		biz	bazor

“Xarflarni o‘zagartirib so‘z tuzing” o‘yini.

1-variant –og‘zaki. Bunda o‘qituvchi so‘zlarni aytadi, o‘quvchilarbir so‘z tartibidagi unli yoki undosh tovushlarni o‘zgartirib yangi szo‘topishib, bu so‘z ishtirokida so‘zlar tuzadilar.

2-variant- yozma ravishda. Xat taxtaga so‘zlar qator qilib yozibqo‘yiladi. 2-guruxdagi o‘quvchilar unli yoki undosh tovularni o‘zagrtirib yangi so‘zlar tuzib yozadilar. O‘yin musobaqa tarzida o‘tkaziladi.

O‘yin chuchun so‘zlar.

Unlilarni o‘zgartirish.

Kun:	ko‘p	kon	
Ko‘z:	ko‘r	kar	
Dil:	do‘l		
Nafas:	nafis		
Aka:	uka		
Alam:	olam		
Ariq:	oriq		
Bormoq:	bermoq		
Osh:	esh	ish	
Pichoq:	pachoq	po‘choq	
Soz:	so‘z	siz	suz
Saman:	somon		
Undoshlarni o‘zgartirish.			
Moy:	toy	choy	soy
Til:	dil	bil	qil
Bor:	tor	qor	xor
Alam:	qalam	dalam	
Ayiq:	qayiq		
Asal:	kasal	masal	
Barmoq:	qarmoq	tarmoq	
Barcha:	darcha		
Bosh:	qosh	tosh	
Kam:	nam	g‘am	sham
Tuz:	muz	kuz	buz
Nog‘ora:	zog‘ora		
Sariq:	tariq		
Shahar	shakar	zaxar	
Tovoq:	qovoq		
Tovus	tovush		
Bir harfni olib so‘z tuzish:			

Qo'y:	o'y	sharpa	arpa
G'alla:	alla	uxlamoq:	ulamoq
Qanor:	anor	toshmoq :	oshmoq
Qarz	arz	tekin	ekin
O'rtoq:	o'toq	ro'choq	o'choq

So'zlarga harf qo'shib yangi ma'noli so'zlar topig vaular ishtirokida gaplar tuzing.

Ayol-xayol	och-soch
Ayiq-qayiq	ochiq –sochiq
Ayron-xayron	oqmoq-boqmoq
Alam-qalam	son-son
Anjir-zanjir	tuk-etuk

Fonetik o'yinlar, leksik o'yinlar, grammatik o'yinlar, muloqat o'yinlari o'quvilar lug'atini boyitishda yaxshi samara beradi. O'yinlar ichida albatta, xalq og'zaki ijodi (topishmoqlar,tez aytishlar, metagrammalar) dan foydalanish ham nutq samaradorligini o'stirishda hamda oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar ko'proq o'quvchilarni guruhlariga bo'lib olib boriladi. Nutq o'stirishga qaratilgan o'yin turlari barcha darslarda ham olib boriladi. O'quvchi nutqiga faqat o'qish,o'zbek tili yoki matematika darsida emas, balki, dunyotanih,mehnat,tasviriy san'at,musiqa darslarida,turli sayohatlarda ham e'tibor berilsa, nutqi ravon, aniq, so'zga usta, hurfikr o'quvchilarni tarbiyalab borayotgan bo'lamiz.

O'quvchilarimiz ko'p gapiradigan emas, oz va soz gapiradigan bo'lib, nutqi ham rivojlanib borsa ajab emas. Ulug' rus pedagogi K.D. Ushinskiy har bir fan hamisha bolaga so'z orqali o'rgatilishi, o'zlashtirilishi va bayon qilinishi kerakligini, uning uchun o'quvchi tushunmagan har bir so'zni tushuntirib borishi muhim ahamiyatga ega ekanligini bejiz ta'kidlamagan. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini to'liq tushunsagina, u bu so'zdan o'z nutqida amaliy ravishda foydalana oladi. Matn ichidan bolalarning tushunishlari qiyin bo'lgan so'zlarni ajrata bilishni o'rgatish va shu so'zlarni ma'nosini o'zlashtirib olishlariga erishish kerak.

X u l o s a

O'quvchilarning nutqini bekamu ko'st, chiroyli va yoqimli, har tomonlama talabga javob beradigan darajada shakllantirish uchun o'qituvchining nutqi namunali bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z nutqiga e'tiborli bo'lsagina, o'quvchidan to'g'ri gapirishni talab qila oladi. Baland ovoz bilan yoki ming'irlab gapirish sinfda osoyishtalikni buzadi va o'quvchilarni ham baland ovoz bilan gapirishga o'rgatadi. Agar o'qituvchi sokin, adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda gapirishni odob qilsa, nutqi sodda, bolalar tiliga yaqin, tushunarli, jozibador bo'lsa, bu sinfda o'quvchining diqqatini tortadi va mavzu ularga tushunarli bo'ladi.

O'quvchining darsda diqqat – e'tibor bilan o'tirishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntirish va anglatish usullariga emas, balki uning nutqini go'zal va ta'sirchanligiga ko'p darajada bog'liqdir. So'z me'yoriga e'tibor berilmasa suhbatdoshini zeriktiradi, hafsalasini pir qiladi. Ko'p gap qadsiz bo'lib, so'zlovchining ham qadrini ketkazadi.

Nutqi ravon, aniq, so'zga usta insonlar bilan suhbatlashish, kutubxona bilan uzviy aloqani mustahkamlanishi bolalarimiz nutqini ravon qiladi. Fan va madaniyatning taraqqiy etishi, tajribalarning va turmush madaniyatimizning o'sishi natijasida atrofimizda juda ko'p yangiliklar, ulkan qurilishlar, murakkab mashinalar, kashfiyotlar vujudga kelmoqda. Bularning barchasi nutqimizga yangi so'z va iboralarning qo'shilishidan dalolat beradi.

Ma'lumki, ona tili jamiki bilimlarning kaliti, poydevoridir. Ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida

qaraladi. Bu jarayon hozirgi kun talabiga javob bermasa, boshqa fanlar ta'limiga ham putur yetishi mumkin. Hozirgi kun talabi esa o'quv jarayonini mukammal isloh qilish, ta'lim samaradorligini muttasil oshirib borishdir. Bunda, so'zsiz, ta'limning yangi, zamonaviy texnologiyasiga suyanish kutilgan natijani berishi shubhasizdir.

Ona tili fani maktabda o'quvchining kamol topishida, dunyoqarashining o'sishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi, yuqorida ta'kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta'kidlash joizdir.

Bitiruv malakaviy ishim mavzusi ustida ishlash jarayonida o'zim tanlagan mavzuning nihoyatda dolzarb masalalardan biri ekanligini his etdim. Kelgusi pedagogik faoliyatimda mavzu ustida ishlash paytida dars mashg'ulotlarida o'tkazgan tajribalar va usullardan foydalanishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

F o y d a l a n i l g a n a d a b i y o t l a r r o ' y x a t i

1. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998 -yil, 2 -son.
2. Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2009 -yil, 6 -dekabr soni.

3. Abdullayev I. Uzluksiz ta'lim bo'g'inlari uchun ona tilidan muqobil dasturlar. Toshkent. "O'qituvchi", 1994.
4. Abdullayev Y. Hamrohim. Yangi alifbo va imlodan qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi", 1996.
5. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to'plami. Toshkent. "O'qituvchi", 1976.
6. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1984.
7. G'afforova T., Nurullayeva SH., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.
8. G'afforova T., G'ulomova X., Eshturdiyeva G. 1-sinfda savod darslari. Toshkent. "O'qituvchi", 1996.

9. G'ulomov A., Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Toshkent. "O'qituvchi", 1989.
10. G'ulomov M. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. "O'qituvchi", 1992.
11. G'ulomov Yo., Rasulov I., Rustamov Q., Mirzaahmedov B. O'zbek tili o'qitish metodikasi Toshkent. "O'qituvchi", 1975.
12. Mirzaev A. Boshlang'ich sinflar uchun orfografik so'z minimumi. Toshkent. "O'qituvchi", 1985.
13. Mirzaev A. Diktant metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1979.
14. Qiyasova Q. Til darslarida o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. Toshkent. 2003 -yil, 5 -son.
15. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1985.
16. Yunusov Q. Boshlang'ich sinflarda orfografiya o'qitish masalalari. Andijon. 1991.
17. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2006.
18. Yunusov Q. Ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya. Andijon. 2006.
19. Yusupov M. O'qish va yozuv darslarining samaradorligini oshirish. Toshkent. "O'qituvchi", 1990.
20. Yusupova M. Diktantlar to'plami. Toshkent. "O'qituvchi", 2004.

21. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Toshkent. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1998 -yil, 6-son.
22. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligining Axborotnomasi. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 1999- yil, 7- maxsus son.
23. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. T., "O'qituvchi", 1995.

